


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



TDU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TDU
TOSHKENT
ARCHITECTURA - OQUBUSH
UNIVERSITETI



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
Farida Nishanova	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
Xakimov Zafar Ibragimovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
Бекимбетова Мария Махсетуллаевна	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
Xasanova Yulduz Kayumovna	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
B.A. Hikmatov	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
Rahimova Volda Karim qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
Jiyanov Laziz Najimovich	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS 317
Laziz Sayimovich Safarov
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS..... 321
Dilnoza Jorayevna Kuvatova
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI 325
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li



TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0002-1053-3305



Annotatsiya. Maqolada turizm sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy kompetensiyalari va ularni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Muallif raqamli, kommunikativ, servis hamda barqaror turizm kompetensiyalarini yagona tizimga birlashtiruvchi yondashuvni asoslaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasiga oid farmon va qarorlari hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi qoidalari kompetensiyaviy ta’limning huquqiy negizi sifatida tahlil qilinadi. Kompetensiyalarni baholashning integratsion (TEF va TQI) yondashuvi taklif etiladi. Ilmiy yangilik kadrlar tayyorlash jarayonini fragmentar emas, balki yaxlit tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida talqin etilishidir.

Kalit so‘zlar: turizm, kadrlar tayyorlash, zamonaviy kompetensiyalar, raqamli ko‘nikmalar, dual ta’lim, servis madaniyati, barqaror turizm, tashkiliy-huquqiy mexanizm.

Abstract. The article examines the modern competencies of human-resource training in tourism and the organizational and legal foundations for their formation. The author substantiates an approach that integrates digital, communicative, service and sustainable-tourism competencies into a unified system. Presidential decrees and resolutions of the Republic of Uzbekistan on tourism, together with the provisions of the “Uzbekistan – 2030” Strategy, are analysed as the legal basis of competency-based education. An integrated approach to competency assessment (TEF and TQI) is proposed. The scientific novelty lies in interpreting the training process not as fragmented elements but as a holistic organizational-economic system.

Keywords: tourism, human-resource training, modern competencies, digital skills, dual education, service culture, sustainable tourism, organizational-legal mechanism.

Аннотация. В статье исследуются современные компетенции подготовки кадров в сфере туризма и организационно-правовые основы их формирования. Автор обосновывает подход, объединяющий цифровые, коммуникативные, сервисные и компетенции устойчивого туризма в единую систему. Указы и постановления Президента Республики Узбекистан по сфере туризма, а также положения Стратегии «Узбекистан – 2030» анализируются как правовая основа компетентностного образования. Предлагается интеграционный подход к оценке компетенций (TEF и TQI). Научная новизна заключается в трактовке процесса подготовки кадров как целостной организационно-экономической системы.

Ключевые слова: туризм, подготовка кадров, современные компетенции, цифровые навыки, дуальное образование, культура сервиса, устойчивый туризм, организационно-правовой механизм.

KIRISH

Jahon turizm bozorida raqobatning kuchayishi, xizmatlar sifatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi va raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda turizm xodimidan nafaqat kasbiy bilim, balki mijozga yo‘naltirilgan xizmat madaniyati, xorijiy tillarda erkin muloqot qilish, raqamli vositalardan foydalanish hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya etish ham talab qilinmoqda. Shu bois turizm sohasi uchun zarur zamonaviy kompetensiyalar majmuini aniqlash va ularni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimi, predmeti esa zamonaviy kompetensiyalarni

shakllantirish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlardir. Maqolaning maqsadi turizm mutaxassislariga qo'yiladigan zamonaviy kompetensiyalarni tasniflash va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, kompetensiya turlarini guruhlash, davlat siyosatining tartibga soluvchi hujjatlarini tahlil qilish hamda baholashning integratsion yondashuvini taklif etish vazifalari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson resurslarini boshqarish va xizmatlar sohasida kompetensiyalarni shakllantirish masalalari M. Armstrong, G. Dessler, D. Ulrich kabi olimlar¹ tomonidan strategik boshqaruv nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, ularning ishlarida xodim tashkilotning passiv ijrochisi emas, balki raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy kapital sifatida talqin etiladi. Turizm va mehmondo'stlik sohasida xizmat sifati hamda inson omilining o'zaro bog'liqligi T. Baum, J. Kandampully, C. Grönroos tadqiqotlarida asoslangan. Kompetensiyaviy yondashuv, dual ta'lim va modul tizimiga oid xalqaro metodikalar UN Tourism, ILO va OECD² tomonidan ishlab chiqilgan.

Mahalliy ilmiy izlanishlarda turizm iqtisodiyoti, xizmatlar bozori va kadrlar siyosati masalalari M. Pardayev, I. Tuxliyev, B. Safarov, D. Aslanova va boshqa olimlar tomonidan yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda zamonaviy kompetensiyalar ko'pincha alohida yo'nalishlar kesimida o'rganilgan. Ushbu maqolaning o'ziga xosligi raqamli, kommunikativ, servis va barqaror turizm kompetensiyalarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqishi hamda ularni davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari bilan uzviy bog'lashidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mantiqiy-nazariy umumlashtirish, qiyosiy taqqoslash, guruhlash hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida rivojlangan turistik davlatlar (Germaniya, Shveysariya, Singapur, Janubiy Koreya) tajribasidagi kompetensiya modellari milliy ta'lim tizimiga moslashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Normativ-huquqiy hujjatlarining kontent-tahlili orqali davlat siyosatida turizm kadrlari kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar aniqlandi. Kompetensiyalarni miqdoriy baholash uchun integratsion indekslar yondashuvi qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turizm sohasida mutaxassisga qo'yiladigan talablarni umumlashtirish asosida kompetensiyalarni shartli ravishda to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin: kasbiy-fundamental, raqamli, kommunikativ-servis hamda barqaror va inklyuziv turizm kompetensiyalari. Mazkur guruhlarning har biri xizmat sifati va mijozlar qoniqishini ta'minlashda o'ziga xos vazifani bajaradi. Ularning tarkibiy mazmuni **1-jadvalda** keltirilgan.³

1-jadval. Turizm mutaxassisining zamonaviy kompetensiyalari tasnifi

Kompetensiya guruhi	Asosiy mazmuni	Baholash indikatori
Kasbiy-fundamental	Turizm iqtisodiyoti va marketingi, merosshunoslik, xizmatlar huquqi, turizm geografiyasi bo'yicha bilim	Test va sertifikat natijalari (≥85%)
Raqamli	Elektron bronlash va rezervatsiya tizimlari, raqamli marketing, ma'lumotlar tahlili, CRM va PMS platformalaridan foydalanish	Amaliy loyiha va topshiriq natijasi
Kommunikativ-servis	Kamida ikki xorijiy tilda muloqot, servis etikasi, madaniyatlararo muomala, mijoz psixologiyasi	CEFR B2+; turist bahosi (≥4,5/5)
Barqaror va inklyuziv	Ekologik me'yorlar, resurs tejamkorligi, universal dizayn, mahalliy hamjamiyat bilan ishlash	Nazorat varaqalari va DMO hisobotlari

Izoh: jadval muallif tomonidan zamonaviy mehnat bozori talablari va xalqaro ta'lim standartlari (UN Tourism TedQual, EQF) asosida shakllantirildi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi

- 1 J. R. B. Ritchie va G. I. Crouch. Turistik hududlarning raqobatbardoshligi va barqarorligi modeli" (Tourism Destination Competitiveness and Sustainability Model)
- 2 UN Tourism (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) global miqyosda turizm sanoatini rivojlantirish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha hamkorlik qiladi.
- 3 Muallif tamindan



“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni⁴ ta‘lim tizimini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga mos malakali kadrlar tayyorlash vazifasini belgilab, turizm ta‘limini yangilash uchun huquqiy negiz yaratdi.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlashga bevosita yo‘naltirilgan dasturiy hujjatlar tizimi izchil shakllanib bordi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 16.08.2017 yildagi PQ-3217-son⁵ qaror turizm ta‘lim muassasalarining yangi modelini yaratishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 28.06.2018 yildagi PQ-3815-son⁶ qaror esa “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetini tashkil etish orqali xalqaro standartlarga mos kompetensiyaviy ta‘lim markazini shakllantirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son⁷ Farmon bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida turizm kadrlarini tayyorlashni modernizatsiya qilish va ta‘lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish strategik yo‘nalish sifatida belgilandi.

Keyingi bosqichda davlat siyosati kompetensiyaviy va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni mustahkamlashga qaratildi. 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid hukumat qarorida ta‘lim sifatini oshirish, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlarni kengaytirish hamda raqamli platformalarni joriy etish vazifalari nazarda tutildi. Mazkur ustuvorliklar “O‘zbekiston - 2030”⁸ strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlashga oid yo‘nalishi bilan uyg‘un bo‘lib, kompetensiyaviy ta‘limni milliy rivojlanish maqsadlari bilan bog‘laydi.

Zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda dual ta‘lim modeli markaziy o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvda o‘quv jarayonining muayyan qismi bevosita ishlab chiqarish sharoitida tashkil etilib, talaba nazariy bilimlarini real ish muhitida mustahkamlaydi. Germaniya va Shveysariya tajribasida amaliyot ulushi yuqori bo‘lgan dual model, Singapur va Janubiy Koreyada esa ta‘lim muassasalari va biznesning bevosita hamkorligiga asoslangan tizim samaradorligini ko‘rsatgan. Bu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ta‘lim muassasasi, turizm korxonasi va davlat organi o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik asosida moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining natijadorligini obyektiv baholash uchun maqolada integratsion yondashuv taklif etiladi. Birinchi vosita - ta‘lim sifati, amaliy tajriba va mehnat bozori fikr-mulohazasini yagona ko‘rsatkichda birlashtiruvchi TEF (Training-Experience-Feedback) indeksi. Ikkinchi vosita - kadr malakasi, turist bahosi va menejer bahosini uyg‘unlashtiruvchi TQI (Tourism Quality Index) integratsion modeli. Ushbu yondashuv kompetensiyalar darajasini “professional”, “malakali” va “qayta tayyorlashga muhtoj” toifalarida tasniflash hamda o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil turizm sohasida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini alohida ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Davlat siyosatining normativ-huquqiy hujjatlari bunday tizimni shakllantirishning mustahkam negizini yaratgan bo‘lsa-da, kompetensiyalar mazmuni va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: birinchidan, raqamli, kommunikativ-servis va barqaror turizm kompetensiyalarini majburiy modullar sifatida o‘quv dasturlariga integratsiya qilish; ikkinchidan, dual ta‘limni ta‘lim muassasasi, biznes va davlat o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik hamda moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari asosida kengaytirish; uchinchidan, kompetensiyalar sifatini TEF va TQI integratsion modellari yordamida muntazam monitoring qilish; to‘rtinchidan, hududiy ixtisoslashuvni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish. Mazkur chora-tadbirlar turizm sohasini bozor talablariga tez moslashadigan, raqamli va xalqaro kompetensiyalarga ega kadrlar bilan barqaror ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3217-son qarori. // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-iyuldagi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros

4 Lex.uz/docs/-3107036.

5 <https://lex.uz/docs/3311817?otherlang=1>

6 <https://lex.uz/docs/-3799075>

7 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

8 <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.



xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risidagi PQ-3815-son qarori. // www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz.

5. "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi. // www.lex.uz.

6. Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. - London: Kogan Page, 2014. – 880 p.

7. Baum T. Human resources in tourism: Still waiting for change? A 2015 reprise // Tourism Management. – 2015. – Vol. 50. – P. 204–212.

8. UN Tourism. Tourism Education Quality (TedQual) Certification. - Madrid: UN Tourism, 2023.

9. OECD. Tourism Trends and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2024.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100